

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH

**O‘ZBEK TILI MUSTAQIL LEKSEMALARINING XUSUSIY
BIRIKUVCHILARI VA ULARNING MODELLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата доктора наук (DSc) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on
philological sciences**

Ibragimov Javlon Yormatovich

O‘zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning
modellari 5

Ibragimov Javlon Yormatovich

Own combination words of independent lexemes of the Uzbek language and
their models 27

Ибрагимов Жавлон Ёрматович

Собственные сочетательные слова самостоятельных лексем узбекского
языка и их модели 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 55

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH

**O‘ZBEK TILI MUSTAQIL LEKSEMALARINING XUSUSIY
BIRIKUVCHILARI VA ULARNING MODELLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.DSc/Fil2824 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qarshi davlat universiteti veb-sahifasida (www.qarshidi.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Umurqulov Bekpo'lat Normurodovich
filologiya fanlari doktori, professor

Shahobiddinova Shohida Hoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "31" mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz.). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (153-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya aytoreferati 2023-yil "18" mart kuni tarqatildi (2023-yil "18" mart dagi 1- raqamli reyestr bayonnomasi).



[Signature]
N.N.Shodmonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

[Signature]
G.Tojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya
fanlari doktori (DSc), dotsent

[Signature]
X.Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida soʻzlarning birikuvchanlik xususiyatlari tilshunoslarni qiziqtirib kelgan eng muhim muammolardan sanaladi. Til tizimida bu xususiyat soʻzlardan nutq jarayonida gap yoki birikmalardan foydalanishda namoyon boʻladi. Soʻzlarning birikuvchanligi til tizimi va meʼyorlari bilan tartibga solinadi va turli sathlarning oʻzaro munosabati natijasida voqelanadi. Birikmadagi soʻzlarning lugʻaviy va grammatik jihatdan oʻzaro mosligida leksika va sintaksis sathlari munosabatini kuzatishimiz mumkin. Soʻzlar birikuvchanligining mohiyati nafaqat uning leksema voqelanishidagi ahamiyatini, balki soʻz maʼnosining turli tillardagi oʻziga xosliklari kabi jihatlarni ham oʻz ichiga oladi. Globallashuv jarayonida internet ahamiyatining oshishi, mashina va sinxron tarjimaning dolzarb masalaga aylanishi har bir tildagi birikmalar tahlilini amalga oshirish, leksemalarning xususiy birikuvchilarini aniqlashni talab qilmoqda.

Dunyo tilshunosligida amaliy tilshunoslikning yangi ilmiy yoʻnalish sifatida shakllanishi tildan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalarni kun tartibiga qoʻymoqda. Kompyuter lingvistikasi, mashina tarjimasi kabi yoʻnalishlar mukammal til korpusini talab etishi, tilshunoslik fani tahsilini soddalashtirish talabi uning sintaksis sathida ham amaliy samaradorlik bilan bogʻliq tadqiqotlar olib borish zaruratini paydo qilmoqda. Kompyuter tilshunosligi, xususan, avtomatik matn tahlili, elektron lugʻatlar bazasini yaratish va dasturlashtirish, qidiruv tizimlarini mukammallashtirish, mashina tarjimasi kabi muhim yoʻnalishlar taraqqiyoti natijasida soʻzlar orasidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlar, soʻzlarning birikuvchanlik xususiyatlari bilan bogʻliq tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda kompyuter lingvistikasi, milliy korpus, uni yaratish tamoyillariga qiziqish oshib bormoqda. Bu esa tilning barcha sohalariga oid mukammal maʼlumotlar bazasi yaratilishini taqozo qilyapti. Soʻzga oid maʼlumotlar uning birikmadagi xususiyatlari aniqlangandagina toʻliq boʻlishi birikuvchanlik, valentlik kabi tushunchalar, ularni oʻrganishdagi muammolarga oid tadqiqotlar olib borish talabini yuzaga chiqarmoqda. “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat oʻz milliy manfaatlarini taʼminlash, bu borada, avvalo, oʻz madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”¹. Axborotning elektronlashuvi, milliy tilimizni internet tiliga aylantirish zarurati soʻzning barcha xususiyatlari qatorida uning birikuvchanligini ham tadqiq qilishni taqozo qiladi. Bu milliy korpus uchun taʼminot vazifasini bajaruvchi birikuvchanlik lugʻatlarini yaratish, soʻzlar birikuvini modellashtirish zaruratiniva tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga

¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni // www.lex.uz

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Jahon tilshunosligida so'zlar birikuvchanligi va ularni modellashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Cambridge University (Buyuk Britaniya), Boston University, University of New York, University of Pennsylvania, University of California (AQSH); Indiana University (AQSH), The University of Sorbonne (Fransiya), Upsalla universiteti (Shvetsiya), Oxford University (Buyuk Britaniya), Kioto University (Yaponiya), Australian National University (Avstraliya), Istanbul texnika universiteti (Turkiya), Moskva davlat lingvistika universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Novosibirsk davlat texnika universiteti, Ural davlat pedagogika universiteti, V.Vernardskiy nomidagi Tavriya akademiyasi Qrim federal universiteti (Qrim Respublikasi, Rossiya), Qozon federal universiteti (Tatariston Respublikasi, Rossiya), Xarkov davlat pedagogika universiteti (Ukraina), Baki Dövlət universiteti (Ozarbayjon), Tatariston Respublika Fanlar akademiyasi amaliy tilshunoslik va semiotika instituti (Tatariston Respublikasi, Rossiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Qirg'iziston davlat texnika universiteti (Qirg'iziston davlat texnika universitetida olib borilmoqda).

Dunyo tilshunosligida leksemalarning birikuvchilarini tizimli asosda o'rganish, ularning semantik tizimida ro'y beradigan o'zgarish, lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish, birikmalarni tarjima qilishni tartiblash va me'yorlashtirishga qaratilgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy xulosalar qilingan va natijalarga erishilgan: so'zlar birikuvchanligining leksikografik xususiyatlari (Novosibirsk davlat texnika universiteti, Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti), birikmalarning nutqdagi ahamiyati (Ivanova davlat universiteti), leksik-sintaktik birikuvchanlik statistik uslubda o'rganilgan (Sankt-Peterburg davlat universiteti) tahlil qilingan, xususiy birikuvchilar tadqiq qilingan (Moskva shahri pedagogik universiteti, M.Avezov

²Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi google.scholar.com., cheloveknauka.com, dslib.net, researchgate, www.kaznu.kz, bloomsbury.com, www.utexas.edu, english.pku.edu.cn, www.lang.ox.ac.uk, www.bu.edu, americanenglish.state.gov, micros.uz, www.uv.es, www.zora.uzh.ch, cleee@snu.ac.kr, www.ras.ru, adwww.ecu.edu.au, www.sophia.ac.jp/eng; www.msu.ru; www.vsu.ru; www.education.ua/universities, www.navoiy-uni.uz.

nomidagi Janubiy Qozog‘iston davlat universiteti), birikmalarni tarjima qilishning o‘ziga xosliklari tekshirilgan, jumladan, inglizcha-ruscha, ruscha-inglizcha (Sochi davlat universiteti, Oxford University, Cambridge University); ruscha-ispancha (Pitegorsk davlat lingvistika universiteti) birikmalarning sohalarda qo‘llanish xususiyatlari ochilgan (Moskva davlat geodeziya va kartografiya universiteti).

Jahon tilshunosligida tabiiy tilga avtomatik ishlov berish, analizatorlar yaratish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Qidiruv tizimiga doir dasturlar, axborot texnologiyalari yordamida jonli tilni qayta ishlashni ta‘minlovchi milliy til korpusi, sintaktik, morfologik va semantik analizatorlar, ularning tilshunoslik bilan bog‘liq asoslarini taqdim qilish, mashina tarjimasidek zamonamiz uchun muhim hisoblangan sohanirivojlantirishga oid tadqiqotlar shular jumlasidandir. Bunda so‘z, uning birikuvchanlik xususiyatlari, birikmada va birikmadan tashqarida anglatuvchi ma‘nolari o‘rtasidagi farqlar borasidagi tadqiqotlar natijalari asos vazifasini bajarmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida so‘zlar birikuvchanligi masalasi uzoq vaqtdan buyon tilshunoslar e‘tiboridagi masala hisoblanadi. Bu borada N.Z.Kotleva, S.S.Gorelik, I.V.Raxmanov, Y.S.Smirnova, S.B.Berlizon, K.A.Paffen, A.S.Hornby, A.Roym, Y.D.Apresyan, I.A.Melchuk, V.V.Morkovkin, I.I.Ubin, S.K.Folomkinoy, S.S.Xidekel, G.Xelbig, K.A.Zommerfeldt, V.M.Vlavatskaya kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi³.

Jahon va turkiy tilshunoslikda so‘zlar birikuvi keng tadqiq qilingan va birikuvchanlik lug‘atlari yaratilgan. Bu masala N.Bogochanskaya, A.Torgashova, A.B.Amirbekova, V.G.Gak, L.Tenyer, N.I.Feldman, X.Brinkman, R.Gataulin,

³Котелова Н.З. Синтаксическая характеристика слов в толковых словарях. АКД...фил. наук. – Л., 1954, Котелова Н.З. Синтаксическая характеристика слов в толковых словарях как средство разграничения смысловых различий // Лексикографический сборник. 1957, Котелова Н.З. О словаре синтаксической сочетаемости слов // Сочетаемость слов и вопросы обучения русскому языку иностранцев. – М., 1984. Горелик Ц.С. Адъективные словосочетания в современном английском языке. – М., 1967. Словарь наиболее употребительных слов англ., нем. и франц. яз. Под ред. И.В.Рахманова. – М., 1960 Смирнова Е.С. Словарь английских устойчивых сочетаний типа «глагол + существительное». – М., 1968. Берлизон С. Сочетания типа make up/for в современном английском языке. – М., 1964; Paffen K.A. Deutsch-Russisches Satzlexikon. Leipzig, 1966. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. OUP. 1980 Reum A. Petit Dictionnaire de Style. Leipzig, 1953 Апресян Ю.Д. Осильномислабомууправлении // Вопросы языко знания. 1964. – №3. Апресян Ю.Д. О толковом словаре управления и сочетаемости русского глагола // Словарь. Грамматика. Текст. – М., 1996, Апресян Ю.Д., Жолковский А.К., Мельчук И.А. Материалы к толково-комбинаторному словарю. Русский язык-3. – М., 1973, Мельчук И.А. К принципам описания означаемых (о лингвистической семантике) // Язык и человек. М., 1970, Мельчук И.А. Материалы к толково-комбинаторному словарю русского языка-1. – М., 1972, Мельчук И.А. О лексических функциях // Опыт лингвистических моделей «Смысл <> Текст». – М., 1999. Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. – М., 1990. Убин И.И. Некоторые предложения о микро- и макроструктуре переводного словаря лексической сочетаемости // Актуальные проблемы теоретической и прикладной лексикографии. – Иваново, 1997. Фоломкина С.К. Англо-русский словарь сочетаемости. – М., 2000. Хидекель С.С., Кауль М.Р., Гинзбург Е.Л. Учебный англо-русский словарь сочетаемости и трудностей словоупотребления. – М., 1998. Helbig G., Stepanova M.D. Wortarten und das Problem der Valenz in der deutschen Gegenwartssprache. 2 Auflage. Leipzig, 1981. Sommerfeldt K-E., Schreiber H. Worterbuch zur Valenz und Distribution deutscher Adjektive. Leipzig, 1977. Влавацкая М.В. Классификация словарей сочетаемости // Материалы международной конференции «Язык а поликульткрном пространстве: теоретические и прикладные аспекты». Институт языковой коммуникации, Томский политехнический университет. – Томск, 2003.

J.Kats, M.Lyuis, J.Sinkler, M.Benson, E.Benson, D.Uills, Sun Xuey⁴ kabi bir qator olimlar tadqiqotida batafsil yoritilgan. O‘zbek tilshunosligida so‘zlar birikuvi masalasi A.G‘ulomov, M.Asqarova, U.Tursunov, A.Nurmonov, G‘.Abdurahmonov A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyev, A.Ahmedov, Sh.Shoabdurahmonov, H.Ne‘matov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M.Abuzalova, S.Nazarova kabi yetakchi olimlarimiz tomonidan o‘rganilgan⁵.

O‘zbek tili so‘zlar birikuvi tadqiqi va birikuvchanlik lug‘atining yaratilishi quyidagi kabi ishlar rivoji va kelgusidagi tadqiqiga ham o‘z hissasini qo‘shmay qolmaydi: 1) o‘zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish⁶, 2) mashina tarjimasining o‘zbek-ingliz tili lingvistik ta‘minoti⁷, 3) o‘zbek tili mualliflik korpusini tuzish tamoyillari⁸, 4) o‘zbek tili ta‘limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari⁹, 5) harakat fe‘llariga tayanib kompyuter dasturlari uchun lingvistik asos yaratish¹⁰.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Mazkur ish Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasidagi “O‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari” mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilarini aniqlash, ularning modellarini ishlab chiqishning birikuvchanlik lug‘atlarini yaratishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon tilshunosligi tarixida so‘zlar birikuvi masalalarining o‘rganilishidagi muammolarni aniqlash;

jahon nazariy tilshunosligida valentlik nazariyasi tadqiqiga ta‘sir qiluvchi omillarni belgilash;

⁴Богочанская Н., Торгашова А. (сост.): Новый турецко-русский русско-турецкий словарь. – М.: Хит-книга, 2021. Амирбекова А.Б. О разработке словаря сочетаемости казахского языка, 2019. Гак В.Г. Беседы о французском слове (из сравнительной лексикологии французского и русского языков). – М., 1966. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М., 1988. Фельдман Н.И. Об анализе смысловой структуры слова в двуязычных словарях // Лексикографический сборник. – М., 1957. Вып. 1. Brinkmann H. Die deutschen Sprache. Gestalt und Leistung. Dusseldorf. 1962. Gataullin R. Lexikographie der deutschen Gegenwartssprache. – Ufa, 2000. Katz J.J., Fodor J.A. The Structure of a Semantic Theory. “Language”, 39, 2, 1963. Lewis M. Implementing the Lexical Approach. LTP. 1997. Lewis M. Teaching Collocation. LTP, 2000. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. OUP, 1991. Benson M., Benson E. The BBI Combinatory Dictionary of English. – М., 1990. Willis D. The Lexical Syllabus. Harper Collins Publishers. 1996; СунХуэй. Сочетаемость русских слов и её отражение в учебном поли-аспектном словаре русского языка для китайских учащихся. – М., 1992. АКД... филол.н.

⁵G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent, 1987. Abdurahmonov G‘., Sulaymonov A., Xoliyorov X, Omonturdiyev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. Ahmedov A. Sintaktik birliklar tarkibi // O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, 1992. Sh.Shoabdurahmonov va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, III qism. – Toshkent, 2006.

⁶Begmatova G. O‘zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis.avtoref. – Termiz, 2021. – 48 b.

⁷Abduraxmonova N.Z. Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta‘minoti (Sodda gaplar misolida). Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...dis. aftoref. – Toshkent, 2018. – 52 b.

⁸Xamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...diss. – Qarshi, 2018. – 250 b.

⁹Xoliyorov O‘. O‘zbek tili ta‘limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol. fan. bo‘yicha fal. dok-ri. diss. avtoref. – Termiz, 2021. – B. 16. – 52 b.

¹⁰Muhammedova S. Harakat fe‘llari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta‘min yaratish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2006.

jahon leksikografiyasida soʻzlar birikuvchanligi lugʻatlarining yaratilish sabablarini aniqlash;

oʻzbek tilshunosligi tarixida soʻzlar birikuvi masalalarining oʻrganilishidagi muammolarni aniqlash;

oʻzbek nazariy tilshunosligida valentlik tushunchasi va undagi muammolarni aniqlash;

oʻzbek lugʻatlarida soʻzlar birikuvchanlik xususiyatlarining ifodalanishida hokim va tobe aʼzolarining mavqeyini belgilash;

oʻzbek tili soʻzlar birikuvchanligi lugʻatlarining lingvistik zarurati va ahamiyatini asoslash;

oʻzbek tili mustaqil soʻzlari xususiy birikuvchilarining qoliplarini ishlab chiqish;

oʻzbek tili matnlarida soʻzlarning bevosita va bilvosita xususiy birikuvchili birikmalarini modellashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida oʻzbek tili mustaqil leksemalariga xususiy birikuvchi boʻlib keluvchi soʻzlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini oʻzbek tili birikuvchanlik lugʻati vositasida milliy korpus uchun asos boʻladigan soʻzlar birikuvini modellashtirish hamda sistemalashtirish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, statistik va modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jahon tilshunosligida soʻzlar birikuvi masalasi hamda valentlik nazariyasining oʻrganilishi birikuvchanlik lugʻatlarining yaratilishiga, lugʻatlar esa mashina tarjimasini, avtomatik matn kiritish kabi sohalar taraqqiyotiga xizmat qilganligi dalillangan;

birikuvchanlikning leksikografik xususiyatlari izohli lugʻatlarda bosh soʻz izohini aniqlashtirish orqali tarjima lugʻatlarida oʻzga tildagi soʻzning tarjimasini taʼminlash, birikuvchanlik lugʻatlarida boshqa soʻzlar bilan birikma hosil qilish imkoniyatini ifodalashdan iborat ekanligi ochib berilgan;

oʻzbek tili soʻzlar birikuvchanligi lugʻatining lingvistik ahamiyati soʻz semantik xususiyatlarini toʻliq ochish, uning jonli nutqda qanday soʻzlar bilan va qanday nutq vaziyatlarida qoʻllana olishini aniqlashtirishda namoyon boʻlishi isbotlangan;

oʻzbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchili sodda va murakkab qoliplarining umumiy birikuvchili soʻz birikmalari qoliplaridan farqi xususiy birikuvchili qoliplarning nisbatan quyi bosqichda joylashishi orqali ochib berilgan;

oʻzbek tili matnlarida qoʻllangan soʻzlarning bevosita va bilvosita xususiy birikuvchili birikmalarining ishlab chiqilgan modellari milliy korpus sintaktik analizatori uchun taʼminot vazifasini bajarishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jahon tilshunosligidagi soʻz tadqiqi, xususan, uning birikuvchanligi va valentligi tadqiqi tahlili, birikuvchanlik xususiyatining, avvalo, izohli va tarjima lugʻatlarida, keyinchalik maxsus birikuvchanlik lugʻatlarida aks etganligi ochib berilgan;

o'zbek tilshunosligi tarixidagi valentlik tushunchasi, so'zlar birikuvi masalalari tadqiqi o'rganilgan, ulardagi muammolar aniqlangan, xususiy birikuvchilar, ularning lug'atlarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan yechim va vazifalar ochib berilgan;

o'zbek tilida hokim va tobe mavqeli so'zlarning birikuvchanlik xususiyatlari aniqlangan, so'zlar birikuvchanligi lug'atining o'zbek tili mustaqil so'zlari xususiy birikuvchilarining qoliplarini ishlab chiqish, so'zlarning bevosita va bilvosita xususiy birikuvchili birikmalarini modellashtirishdagi zarurati va ahamiyati dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq qilingan materiallarning o'zbek tili xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xulosalar tayyorlashga yordam berganligi, ularning asosga ega ekanligi, metodologik tomondan mukammalligi, o'zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellarini yaratishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tili mustaqil leksemalari xususiy birikuvchilarining modellari, qoliplarining ishlab chiqilishi mashina tarjimasi va kompyuter lingvistikasi yo'nalishlarida, so'zlar birikuvchanligi lug'atlari zarurati dalillanishi leksikografiya sohasida tadqiqotlar qilishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Kompyuter lingvistikasi", "Korpus lingvistikasi", "Amaliy tilshunoslik", "Mashina tarjimasi" fanlari, qolaversa, leksikografiya sohasini o'qitish jarayonida dastur, rejalar tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dunyo hamda o'zbek tilidagi leksemalarning birikuvchanlik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

jahon tilshunosligida so'zlar birikuvi masalasi hamda valentlik nazariyasining o'rganilishi birikuvchanlik lug'atlarining yaratilishiga, lug'atlar esa mashina tarjimasi, avtomatik matn kiritish kabi sohalar taraqqiyotiga xizmat qilganligi dalillanganiga doir xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi, Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalihi" mavzusida bajarilgan FA-F1-G003 fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 22-iyuldagi 17-01/186-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha materiallari so'zlar birikuvchanligining yangi so'z yasash bilan bog'liq xususiyatlari, ularning umumiy va birikuvchanlik lug'atlarida berilishiga oid yangi ilmiy manba va ma'lumotlar bilan boyitish imkonini bergan;

birikuvchanlikning leksikografik xususiyatlari izohli lug'atlarda bosh so'z izohini aniqlashtirish orqali tarjima lug'atlarida o'zga tildagi so'zning tarjimasini ta'minlash, birikuvchanlik lug'atlarida boshqa so'zlar bilan birikma hosil qilish imkoniyatini ifodalashdan iborat ekanligi ochib berilganiga oid natijalaridan Toshmuhammad Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali tomonidan 2020-2022-yillarda bajarilgan F3-2016-0908165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotni rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi

fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (T.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 19-oktabrdagi 281-son ma'lumotnomasi). Natijada fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar, tezislar hamda monografiyalar saviyasini oshirishda xizmat qilgan;

o'zbek tili so'zlar birikuvchanligi lug'atining lingvistik ahamiyati so'z semantik xususiyatlarini to'liq ochish, uning jonli nutqda qanday so'zlar bilan va qanday nutq vaziyatlarida qo'llana olishini aniqlashtirishda namoyon bo'lishi isbotlanganiga oid nazariy fikrlardan 5220100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan "Hozirgi o'zbek tili" darsligining "Til birliklari", "Barqaror birikmalar" deb nomlangan qismlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 27-martdagi 274-son buyrug'iga muvofiq 274-312 raqami asosida ro'yxatga olingan). Natijada darslikdagi til birliklari va barqaror birikmalar, ularning birikuvchanlik lug'atlarida aks etishiga oid ma'lumotlar nazariy va amaliy jihatdan boyitish imkonini bergan;

o'zbek tilshunosligi tarixidagi valentlik tushunchasi, so'zlar birikuvi masalalari tadqiqi o'rganilgan, ulardagi muammolar aniqlangan, xususiy birikuvchilar, ularning lug'atlarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan yechim va vazifalar ochib berilganiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2018-2020-yillarga mo'ljallangan Bv-Atex2018-(251+143) "Ko'rish imkoniyati cheklangan talabalar uchun tilshunoslik fanlari bo'yicha audio kitob ta'minotini yaratish" mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 14-noyabrdagi 04-1-3108-1 son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek matnlaridagi mustaqil leksemalarning xususiy birikuvchanligi, birikuvchanlik lug'atlarining ahamiyatiga oid ma'lumotlarni aniqlashtirishga erishish imkonini bergan;

o'zbek tilida hokim va tobe mavqeli so'zlarning birikuvchanlik xususiyatlari aniqlangan, so'zlar birikuvchanligi lug'atining o'zbek tili mustaqil so'zlari xususiy birikuvchilarining qoliplarini ishlab chiqish, so'zlarning bevosita va bilvosita xususiy birikuvchili birikmalari modellashtirishdagi zarurati va ahamiyati dalillanganiga oid xulosalaridan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining "Oltin voha" dasturidagi "Ochiq muloqot" radioeshittirishining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 27-dekabrdagi 17-05/345-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur radioeshittirish uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola (shu jumladan, 9 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Hajmi 237 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “G‘arb tilshunosligida so‘zlar birikuvchanligi va leksikografik talqini” deb nomlangan. Bobning “Jahon tilshunosligi tarixida so‘zlar birikuvi masalasining o‘rganilishi” deb nomlangan birinchi bo‘limda sintagmatikaga doir to‘plangan ma‘lumotlar o‘tgan asr boshlarida nazariy sintagmatika, valentlik va birikuvchanlik nazariyalari kabi fan tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilganligi, dunyo tilshunosligida ilmiy paradigma yo‘nalishi va maqsadlarining o‘zgarishi, zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va rivojlanishi, kognitiv fan tarmoqlarining, jumladan, lingvokulturologiya, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, amaliy tilshunoslik kabi fanlarning taraqqiyoti, madaniyatlararo muloqotning globallashuvi sintagmatika, so‘zlar birikuvi va valentlik nazariyalariga e‘tibor yanada kuchayishi lozimligi izohlangan.

G‘arb tilshunosligida birikmalarni tasniflashda uning barcha bosqichlarida bir xil qo‘llanadigan yagona tamoyilga asoslanilmaydi, bu esa tizimlilikka putur yetkazadi. Masalan, birinchi bosqich (gipotaksisga va parataksisga asoslangan) sintaktik butunlikni hosil qiluvchi qurilmaning ichki tuzilishiga asoslansa, ikkinchi bosqich (endotsentrik, ekzotsentrik) birikmani hosil qiluvchi so‘zlar va ularning lug‘aviy ma‘nolari matnning keyingi qismda qanday maqomda bo‘lishiga asoslanadi. Uchinchi bosqichda esa endotsentrik birikuvlarni tasniflashda birikmani hosil qilayotgan so‘zlarning teng yoki tobe munosabatda birikishini asos qilib oladi. Tasniflashdagi bunday nomutanosiblik birikmalarni turlarga ajratishda muammolar tug‘dirsa-da, umuman olganda xorij tilshunosligida bumasala yetarlicha tadqiq qilindi va to‘plangan ma‘lumotlar keyingi davr tilshunosligi uchun asos bo‘lib xizmat qila oladi.

Bobning “Jahon tilshunosligida valentlik nazariyasi” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida valentlik atamasining struktur yo‘nalish vakili fransuz tilshunosi L.Tenyer ishlarida ilk bor qo‘llanganligi¹¹, dastlab bu faqat fe‘lga xos tushuncha sifatida talqin etilganligi, shunga ko‘ra fe‘llarni avalent, monovalent, divalent, trivalent kabi kichik guruhlariga bo‘lib o‘rganilganligi, olimning valentlik tushunchasiga oid nazariyasining asosiy qoidalari G.Brinkman, I.Erben, P.Grebe, I.Vaysberg, V.Shmidt, G.Xelbig ishlarida umumlashtirilganligi va yanada kengaytirilganligi tavsiflangan.

¹¹Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс.1988. – 125 с.

Rus tilshunosligida “valentlik” atamasi ilk bor S.D.Katsnelson tomonidan qo‘llangan va u bu tushunchaga quyidagicha ta’rif beradi: “boshqa so‘zlarni biriktira olishi asosida so‘zlar toifasini aniqlash”¹². U valentlikka so‘zning qisqacha ma’nosida qaror topgan sintaktik kuch, ya’ni o‘ziga boshqa aniq bir to‘liq ma’noli so‘zni biriktira olish qobiliyati sifatida qaraydi. Aslida ham bir to‘liq ma’noli so‘z boshqa bir to‘liq ma’noli so‘z bilan birika oladi. Lekin valentlik sintaktik aloqalarga kirishishdan ko‘ra kengroq tushuncha hisoblanadi. Rus tilshunosligida, shuningdek, F.I.Buslayev, A.A.Potebnya, V.G.Admoni, M.D.Stepanova, A.M.Muxin, B.M.Leykin, A.V.Kunin, N.I.Filicheva kabi tilshunoslar valentlik nazariyasining muammolari bilan shug‘ullangan va bu ishning shu bo‘limida tavsiflanadi.

Valentlik tushunchasi allaqachon hissiy ahamiyatga ega bo‘lgan uslubiyatda ham qo‘llanmoqda. Hissiy valentlik deganda ma’lum til birligining boshqa til birliklari bilan yashirin yoki yaqqol emosemalar yordamida hissiy munosabatlarga kirish qobiliyati va shu orqali o‘zining hissiyotni ifodalash vazifasini bajarishi tushuniladi. Til birligining ma’nosida bittagina, hatto yashirin bo‘lsa ham, hissiyot ifodalovchi sema mavjud bo‘lishi qachon bo‘lsa ham uning voqelikka chiqishi uchun yetarli va shuning uchun bunday birlik hissiy valentlikka ega hisoblanadi. Valentlikning bu turi bir tomondan, “kutilmagan”, ohoriy, hatto “g‘ayritabiiy” birikuvlarni izohlashda qo‘l keladi. Boshqa tomondan, ba’zi birikmalar mantiqiy-semantik jihatdan birikishi mumkin bo‘lgan ba’zi til birliklari hissiy semalari bir-biriga mos emasligi sababli birikma hosil qila olmasligini asoslaydi. Hissiy valentlikning voqelanishini quyidagi gap misolida ko‘rishimiz mumkin: *The houses turned their backs on the passer-by.*

Adabiyotlar tahlili valentlik nazariyasi tilshunoslikka mustahkam kirib kelganligi va olimlar uni yanada rivojlantirish ustida ishlashda davom etayotganliklari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. So‘nggi yillarda valentlik nazariyasi ma’lum rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi va bu nazariyaning ko‘pgina qoidalari qayta ko‘rib chiqildi, kengaytirildi va chuqurlashtirildi. Dastlab bu atama faqat fe‘l bilan bog‘langan bo‘lsa, keyinchalik valentlikka oid tahlillarga boshqa gap bo‘laklari ham tortila boshlandi.

Bobning uchinchi bo‘limi “Jahon lug‘atchiligida so‘zlar birikuvchanligi lug‘atlari” deb nomlangan. Ushbu bo‘limda so‘zlar birikuvi lug‘atlarda berilishining dunyo leksikografiyasidagi tarixi, hozirgi holati sharhlangan. Birikuvchanlik lug‘atlari, ularni turlarga ajratish muammosi yechimiga qaratilgan ma’lumotlar birikuvchanlik lug‘atlari haqidagi nazariy adabiyotlarda u qadar ko‘p emas. So‘zlarning birikuvchanligini turlarga ajratishga tayanib birikuvchanlik lug‘atlarini ham uch turini farqlash mumkin: 1) leksik birikuvchanlikni aks ettiruvchi lug‘atlar; 2) leksik-semantik birikuvchanlikni aks ettiruvchi lug‘atlar; 3) leksik-sintaktik birikuvchanlikni aks ettiruvchi lug‘atlar. Lug‘atlarni bunday turlarga ajratish birikuvchanlik turlari bir-biridan keskin farqlanishiga asoslanadi.

So‘zlar birikuvchanligi, shuningdek, birikuvchanlika doir lug‘atlarni yaratish tamoyillarini tadqiq qilish bilan shug‘ullangan rus olimasi V.M.Vlavatskaya “birikuvchanlik lug‘atlarini yaratishdek leksikografik loyihani amalga oshirish rus

¹²Кацнельсон С.Д. О грамматической категории//Вестник ЛГУ, 1949. – №2. – 114 с.

tilshunosligida uch bosqichdan iborat bo‘ladi: dastlabki, asosiy va yakuniy”, deb hisoblaydi. Ilk bosqichda yaratilajak lug‘atlarning yo‘nalishlari yaratiladi, so‘zlar birikuviga doir namunaviy birliklar jamlanadi, shu turdagi lug‘atlar uchun zarur bo‘lgan dastlabki materiallar yig‘iladi, mukammallashtiriladi, lug‘atchilik an‘analari tadqiq qilinadi. Ikkinchi bosqichda esa lug‘at uchun zarur so‘zlar tanlanadi, ularning birikuvchanlik lug‘atlari uchun zarurligi tekshiriladi. Yakunlovchi bosqichda esa yaratilgan lug‘atlar jamoatchilikka taqdim qilinadi.

Birikuvchanlikning lug‘atlarda aks ettirish usullari turlicha va olimlarning birikuvchanlik lug‘atlari, ularning vazifalari haqidagi fikrlari ham har xilligi tabiiy hol. Masalan, A.N.Baranovning fikriga ko‘ra, “birikuvchanlik lug‘ati – faol leksikani o‘z ichiga olgan va uning qo‘llanish usullarini ochib beruvchi, “nutqiy qo‘llanish lug‘atlari”ga mansub o‘quv lug‘ati”¹³dir. V.A.Fedosov esa birikuvchanlik lug‘atiga “so‘zlarni tanib olish bo‘yicha qo‘llanma, bunda aniq fikr ifodalovchi emas, bu fikrni ifodalash imkoniyati holidagi so‘zlar”¹⁴ deb ta’riflaydi. V.V.Morkovkin esa birikuvchanlik lug‘atlarini “ma’lum bir tildagi ko‘p qo‘llanuvchi so‘zlarning valentlik (birikuvchanlik) xususiyatlarini tizimli va imkoniyat darajasida to‘liq namoyon qiluvchi o‘quv lug‘ati”¹⁵ deb hisoblaydi. N.K.Ryabseva fikriga ko‘ra, “birikuvchanlik lug‘ati tayanch, ya’ni eng ko‘p qo‘llanadigan leksikani o‘z ichiga oladi, qanday shaklda so‘zlarni biriktirishni, hosil bo‘lgan birikma qaysi uslubga xosligini ko‘rsatadi, bunda tasviriy materialga, ma’noni ochishda u bilan birikuvchi so‘z va birikmalarning tabiiy matnlarda qo‘llanishiga asosiy e’tiborni qaratadi”¹⁶.

Xorij lug‘atlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, birikuvchanlik lug‘atlari o‘quvchiga ma’lum bir so‘zning birikmalar va gaplar tarkibida qo‘llanish imkoniyatini ko‘rsatib beruvchi o‘quv lug‘atlari hisoblanadi. O‘zga tilli foydalanuvchilar bilan bir qatorda lug‘at tili ona tili bo‘lgan o‘quvchilarga ham bunday lug‘atlar so‘zning turli qurshovlarda turli xil ma’no anglati olishi kabi xususiyatlarini ochishda ko‘maklashishi shubhasiz.

Dissertatsiyaning “O‘zbek tilshunosligida so‘z birikmasi va valentlik muammosi hamda uning leksikografik talqini masalasi” deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi bo‘limi “O‘zbek tilshunosligi tarixida so‘zlar birikuv masalalarining o‘rganilishi va undagi muammolar” tahliliga bag‘ishlangan. Hozirgi davrda o‘zbek tilining barcha sathlari bo‘yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud. Jumladan, sintaksis, undan o‘rin olgan so‘zlar birikuv, birikuv natijasida hosil bo‘ladigan so‘z qo‘shilmasi, so‘z birikmasi, ibora va gap kabilar yetarlicha tadqiq qilingan. So‘zlar birikuv formal yondashuvda ham (A.G‘ulomov, M.Asqarova, A.Nurmonov), substansial yondashuvda ham (H.Ne‘matov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M.Abuzalova, S.Nazarova) yetakchi olimlarimiz tomonidan o‘rganildi.

Formal yondashuv vakillari sintaktik aloqaning turlari haqida fikr yuritarkan, unsurlarning munosabatiga ko‘ra teng va tobe turga bo‘linishi, teng aloqa

¹³Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 70. (360 с)

¹⁴Вопросы изучения и преподавания русского языка и литературы в ВНР. Части 1-2. Ред.: АЛ.Гребенев, Н.Л.Журавлева, В.Ю.Копоров и др. – Будапешт, 1986. – С. 129.

¹⁵Морковкин В.В. Опыт идеографического описания лексики. – М.: Издательство Московского университета, 1977. – С. 13.

¹⁶Рябцева Н.К. Словарь оборотов и сочетаемости общенаучной лексики. 3-е изд., испр. – М.: Флинта: Наука, 2002. – С. 591.

natijasida soʻz tizmasi, tobe aloqa natijasida gap va soʻz birikmasi hosil boʻladi, degan xulosaga keladilar. Lekin baʼzi olimlarda teng munosabatdagi qismlardan tuzilgan soʻz birikmalari ham mavjudligi haqidagi fikrlar yoʻq emas. “Soʻz birikmasini bu tarzda tushunish masalaning faqat bir tomoni bilangina bogʻliq koʻrinadi. Negaki komponentlarining tenglik asosida munosabatga kirishuvidan tashkil topuvchi soʻz birikmalari ham mavjud ekanligi bugungi tilshunoslikda toʻliq eʼtirof etilmoqda”¹⁷. Bunda S.Shodiyev “Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi”da A.Ahmedovning fikrlariga tayanadi: “shunday qilib, gap bilan soʻz birikmasi oʻzaro predikativ va nopredikativ birliklar sifatida farq qiladi. Soʻz birikmasi kam deganda, ikki mustaqil soʻzning nopredikativ birikuvidan hosil boʻladigan sintaktik birlikdir. Soʻz birikmasiga faqat tobe aloqa asosida hosil boʻlgan butunliklar emas, shu bilan birga, teng aloqa asosida hosil boʻlgan konstruksiyalar ham kiradi”¹⁸. Fikrimizcha, teng huquqli qismlardan tuzilgan birikuvlarning soʻz birikmasi deb nomlanishi ommalashmadi va oʻz ilmiy tasdigʻini topmadi. Aksincha, darslik va qoʻllanmalarda tobe aloqa natijasida hosil boʻlgan nopredikativ (predikativ birikmalar gap sifatida talqin qilinadi) birikmalar soʻz birikmasi sifatida qayd etildi.

Struktural tilshunoslikda fonetika, leksika, morfologiyada boʻlgani kabi sintaktik hodisalar ham lisoniy va nutqiy jihatdan farqlandi. Lisoniy hodisalar moddiylikdan xolilik, cheklanganlik, takroriylik, ijtimoiylik va majburiylik belgilariga ega boʻlib, moddiylikka egalik, cheklanmaganlik, betakrorlik, individuallik, ixtiyoriylik sifatlariga ega boʻlgan nutqiy hodisalarga qarama-qarshi turadi. Nutqiy hodisa sifatida baholanadigan soʻz birikmasi va gaplar lisoniy sathda lisoniy sintaktik qoliplar (qisqacha LSQ) sifatida umumlashtirildi. Har bir nutqiy parchada turli sath hodisalari qorishgan holda voqelanadi. Masalan, *Qish keldi* gapida fonetik (tovushlar tizimi, ohang), leksik (soʻzlar), morfologik (grammatik shakllar) va uslubiy (masalan, soʻzlovchining munosabati yoki uslubiy betaraflik) sathlar oʻz izini qoldirgan. Anʼanaviy sintaksis nutqiy parchani shu holda, turli mohiyatlar zarralarining qorishmasi sifatida oʻrganadi va uning qorishmaligiga eʼtibor qaratmaydi. Struktural sintaksis esa nutqiy parchada qorishiq holatdagi sintaksisga daxldor boʻlmagan jihatlarni eʼtibordan soqit qiladi. “Anʼanaviy sintaksis keltirilgan gapni muayyanlik sifatida eʼtirof etsa, substansial sintaksis unda turli hodisalar aralash holdaligi sababli mohiyatni anglash mushkulligini hisobga olgan holda mavhumlik sifatida tadqiq qiladi. Qorishiq hodisalar chetlashtirilgan, mohiyat “tozalangan”ligi uchun struktural sintaksis tomonidan muayyanlik bevosita kuzatishda berilmaganligi uchun esa u anʼanaviy sintaksis tomonidan mavhumlik sifatida qaraladi”¹⁹.

Soʻzlarning birikuvi masalasi oʻzbek tilshunosligida nazariy jihatdan batafsil oʻrganilgan. Lekin soʻzlarning birikish imkoniyatlari, oʻzbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari qoliplari, ularning tuzilishi, bevosita (kontakt) va bilvosita (distant) birikuvchanligi modellari ishlab chiqilmagan, mukammal birikuvchanlik lugʻatlari yaratilmagan.

¹⁷ Shodiyev S.E. Turgʻun soʻz birikmalarining sintaktik direvatsiyasi, filol.fan.b.fal.dok (PhD) diss. – Samarqand, 2020. – B. 11-12.

¹⁸ Ahmedov A. Sintaktik birliklar tarkibi // Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, 1992. – B. 17.

¹⁹ Sayfullayeva R, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili, III qism. – Toshkent, 2006. – B. 13-14.

Bobning ikkinchi bo‘limi “O‘zbek nazariy tilshunosligida valentlik nazariyasi va undagi muammolar” deb nomlangan. O‘zbek tilshunosligida valentlik nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilgan. Valentlik nazariyasiga oid ishlarining dastlabkilari o‘tgan asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi va shu tufayli xuddi rus tilida bo‘lgani kabi, bu tadqiqotlar asosan fe‘lning leksik xususiyatlariga tayangan holda olib borilgan. Tilshunoslikda so‘zning semantik valentligi tushunchasi bilan bir qatorda tashqi, ichki, formal, sintaktik, logik kabi valentliklar ham mavjudligi, bularning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishi haqida farazlar mavjud. O‘zbek tilshunoslaridan I.Qo‘chqortoyev, R.Rasulov, A.Nurmonov, Sh.Safarov, N.Turniyozov, S.Muxamedova, M.Mirtojiyev, O‘.Sharipova, M.Abuzalovalarning valentlikka doir tadqiqotlari fikrimiz isbotidir²⁰. Gap tarkibidagi so‘zlarning muayyan qurshovda, boshqa bir so‘zlar bilan birika olish imkoniyatlari tasodifiy va butunlay erkin emas. Ular muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Ma’lum til birligining boshqasi bilan sintaktik aloqaga kirishi qonuniyatlari valentlik tushunchasida birlashadi. So‘zlar orasidagi sintaktik munosabat asosida so‘zning birikish-biriktira olish imkoni yotadi. Sintaktik munosabat so‘zning valentlik qobiliyatiga ega ekanligini, birikish-biriktira olish umumiy xususiyatining jonli nutqda, so‘zlar orasidagi turli xil birikishlarda – xususiylkda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi va bu aslida, “umumiylik va xususiylk, mohiyat va hodisa” dialektikasining namoyon bo‘lishidir.

Valentlik nutqda so‘zlar orasidagi sintaktik aloqani, so‘zlarning, grammatik shakllarning o‘zaro birikuvini ta’minlovchi imkoniyatlar majmuidir. Sintaktik aloqadan valentlik kelib chiqmaydi, balki valentlikdan sintaktik aloqa kelib chiqadi. So‘z valentligi va sintaktik aloqa dialektik bog‘liq, o‘zaro bir butun, ajralmas, ayni vaqtda, har biri nisbiy mustaqil bo‘lgan hodisalardir. Ma’lum bo‘ladiki, valentlik o‘zbek tilshunosligida yetarlicha tadqiq qilingan. Ba’zi atamalarni nomlashdagi har xillik (masalan, bir manbada *so‘z valentligi*, boshqa manbada *lug‘aviy valentlik yoki semantik valentlik*) valentlikning umumiy mohiyatini anglashga mone’lik qilmaydi. Valentlik til birliklarining birikish-biriktira olish qobiliyatini anglatuvchi tushuncha bo‘lib, lug‘aviy, sintaktik, grammatik shakl; lisoniy, nutqiy; hokim va tobe kabi turlarga bo‘linadi. Shu o‘rinda tilshunoslikda so‘zning semantik valentligi tushunchasi bilan bir qatorda tashqi valentlik, ichki valentlik, formal valentlik, sintaktik valentlik, logik valentlik kabi valentliklar ham mavjudligi, bularning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishi haqida farazlar mavjud. Bu tip valentliklarning biri muayyan so‘zning semantik xususiyatlaridan, yana biri birikuvchilarning o‘zaro birika olish imkoniyatidan, boshqasi o‘zaro birikuvchi so‘zlarning shaklidan kelib chiqqanligi tufayli lug‘aviy, sintaktik va grammatik shakl valentligiga xos nazariyalarni takrorlaydi va valentlikni shu uch turga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqligini asoslaydi.

²⁰Rasulov R. O‘zbek tilidagi holat fe‘llari va ularning obligator valentliklari. – Toshkent: Fan, 1989. – 141 b.; Qo‘chqortoyev I.K. So‘z ma’nosi va uning valentligi. – Toshkent: Fan, 1977. – 167 b.; Sharipova O‘. “O‘zbek tilida yumush fe‘llarining ma’no valentliklari” fil.fan.nomz.diss. avtoreferati. – Toshkent, 1996; Жоллибекова М.Р. Типология неполных предложений диалогической речи в разносистемных языках (на материале английского и каракалпакского языков). Дисс. канд. филол.наук. – Нукус, 2008. – 156 с.; M.Abuzalova Substansial morfologiya, valentlik va sintaktik qurilma. filol. fanl. dok. (DSc) diss. Avtoreferati. – Samarqand, 2018.

Bobning uchinchi bo‘limi “O‘zbek lug‘atlarida so‘zlar birikuvchanlik xususiyatlarining berilishi” deb nomlangan. Ushbu bo‘limda so‘zlar birikuvchanligining lug‘atlarda ifodalanishi bir nechta lug‘atlar misolida tahlil qilingan. O‘zbek leksikografiyasida so‘zlar birikuvchanligi lug‘atlari, ularni ma’lum bir turlarga ajratishga qaratilgan ma’lumotlar tilshunoslikka oid adabiyotlarda u qadar ko‘p uchramaydi. Zero, bu turdagi lug‘atlar o‘zbek tilshunosligida nisbatan yangi bo‘lgan amaliy tilshunoslik hal etishi lozim bo‘lgan muammolar sirasiga kiradi. Shunga muvofiq til birliklarini tavsiflovchi birikuvchanlik lug‘atlarini yaratish tilshunoslarning asosiy maqsadi bo‘lmog‘i lozim. O‘zbek tili birikuvchanligi lug‘atlarini yaratishda o‘zbek tilshunosligida bajarilgan leksikografik tadqiqotlar, shu vaqtga qadar yaratilgan lug‘atlar boy manba bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

“Lug‘atlashtirish, V.V.Morkovkin ta’kidlaganidek, birinchidan, alohida lug‘atlar, lug‘atlar turkumi, lug‘at tizimlarini yaratishga qaratilgan filologik faoliyat bo‘lsa, ikkinchidan, til birliklari va ular birikmalarining lug‘atlarda tavsiflanishini anglatadi”²¹. Shunga muvofiq til birliklarini tavsiflovchi birikuvchanlik lug‘atlarini yaratish tilshunoslarning asosiy maqsadi bo‘lmog‘i lozim. O‘zbek tili so‘zlar birikuvchanligi lug‘atlarini yaratishda o‘zbek tilshunosligida bajarilgan leksikografik tadqiqotlar, shu vaqtga qadar yaratilgan lug‘atlar boy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu bo‘limda so‘zlar birikuvchi u yoki bu shaklda, turli maqsadlarda lug‘atlarda aks etishini: 1) 2020-yilda “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyotida nashr etilgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”; 2) 2001-yilda “Sharq” nashriyotida nashr etilgan A.Hojiyev, A.Nurmonov va boshqalarning “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati”; 3) ba’zi tarjima lug‘atlari; 4) 2006-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida nashr etilgan N.Yo‘ldosheva va N.Musulmonovalarning “O‘zbek tili so‘zlar birikuvchanligining o‘quv lug‘ati” kabi lug‘atlar misolida tahlil qilingan. Masalan, bosh so‘zi ishtirokida o‘ndan ortiq iboralar lug‘at maqolalari sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan. *Boshga tushgan, boshdan kechir(il)gan, boshiga solmoq, bosh og‘ritmoq (yoki qotirmoq)* kabi iboralar shular jumlasidandir. Bu iboralar izohi va ularning matnlarda qo‘llanishini ifodalash maqsadida keltirilgan illyustrativ materiallarda birikmalar va gaplardan faol foydalanilgan. *Boshga tushganni ko‘z ko‘rar (Maqol); Tabib tabib emas, boshidan o‘tgan – tabib (Matal); Jonim, man muncha baxti qora yaratilgan ekanmanki, xudo sho‘rlik boshimga shuncha kulfatlarni soldi* (Oybek, Tanlangan asarlar); *Hayotni mukammal qilaman, deb sizdan oldin ham ne-ne odamlar bosh qotirgan* (S.Siyoyev, Yorug‘lik) kabi illyustrativ materiallarda bosh so‘zi ishtirokidagi birikma va gaplar shu so‘zning o‘zbekcha matnlarda qo‘llanishi ko‘rsatilgan.

Lug‘atlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sintaktik aloqa, u orqali hosil bo‘luvchi so‘z birikmasi, so‘z tizmasi va gaplar lug‘at turlarining deyarli barcha turlarida uchraydi. Lug‘atlarda birikuvchanlik turli maqsadlarda: bosh so‘zning ma’nosini izohlash (izohli lug‘atlarda), bosh so‘z tarjimasini aniqlashtirish (tarjima lug‘atlarida), ma’lum bir tildagi so‘zlarning birikuvchanlik xususiyatini namoyon qilish (birikuvchanlik lug‘atlarida) maqsadida qo‘llanadi. O‘zbek tilida muloqot qiluvchilar soni 50 milliondan ortiq ekanligini hisobga olgan holda o‘zbek

²¹Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии. Авт. дисс. д-ра фил.наук. – М., 1990. – С. 58.

tilining mukammal birikuvchanlik lugʻatini yaratish lozim boʻladi. Bu amaliy tilshunoslikning keyingi taraqqiyoti uchun ham xizmat qilishi shubhasiz.

Dissertatsiyaning “Oʻzbek tilida soʻzlarning birikuvchilari turlari hamda tasnifi” deb nomlangan uchinchi bobining birinchi boʻlimi “Oʻzbek tilida soʻzlarning sintaktik pozitsiyasi: hokim va tobe mavqeli soʻzlarning birikuvchanlik xususiyatlari”ga bagʻishlangan. Oʻzbek tilshunosligida soʻzlar birikuvi, uning turlaridan biri boʻlgan tobe aloqa, hokim va tobe soʻzlar atroflicha tadqiq qilingan. Bu sohada A.Kononov, F.Kamol, A.Gʻulomov, M.Asqarova, Gʻ.Abdurahmonov, N.Mahmudov, H.Neʼmatov, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, B.Mengliyev kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

Tilshunos olim B.Mengliyev sintaksisni lisoniy sathda tahlil qilar ekanlar, lisoniy sintaktik qolipining nutqiy voqelanishida birikish omillari muhim oʻrin tutishini taʼkidaydi²². Darhaqiqat, birikmani tashkil etayotgan soʻzlarning oʻzaro kuzatish jarayonida birikuvning ichki qonuniyati kashf etiladi. Bunda aʼzolar uchta: maʼnoviy, joylashuv va shakliy omilga koʻra oʻzaro mos boʻlishi kerak. Bunda tobe leksema birikish imkoniyati voqelanishga, hokim leksema biriktirilish talabi qondirilshga intiladi. Bu uch omil birikmani hosil qiluvchi har bir soʻzda yaxlit boʻladi va bunda maʼnoviy omil hech qachon uchinchi darajaga tushmaydi. “Soʻz birikmalar aʼzolarida maʼnoviy omilning oxirgi oʻringa oʻtishi mumkin emas. Chunki soʻz birikmalar uchun dastlabki talab aʼzolarning maʼnoviy muvofiqligidir”²³.

Albatta, birikma hosil qilishda soʻzning qaysi turkumga mansubligi ham maʼlum bir ahamiyatga ega. Masalan, feʼl koʻproq ot va ravishni biriktiradi, ot esa son, sifat va olmosh kabi turkumlarni biriktirib keladi. Ravish va sifat yoki sifat va feʼlning birikma hosil qilishi murakkabroq. Shu bilan birga birikma hosil qilayotgan leksemalar lugʻaviy maʼnolari mos boʻlishi shartligi (soʻzlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi bundan mustasno), nazarimizda, izoh talab qilmaydi. Baʼzan birikma maʼnosini aniqlash uchun tobe va hokim soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi va bogʻlovchi vositaning grammatik maʼnosi yetarli boʻlmaydi. Nutq vaziyati, soʻzlovchi va tinglovchining umumiy xususiyatlari, birikmaning matndagi oʻrni kabi nolisoniy hodisalar ham birikmaning umumiy maʼnosiga taʼsir qilishi mumkin. Darhaqiqat, tobe va hokim soʻzning lugʻaviy maʼnolari bir-biriga mos boʻlmasa-da, gʻayriodatiy birikma hosil qilishi, bunga nutq intensiyasiga koʻra pragmatik omillar yetakchiligi sabab boʻlgan holatlar ham nutqda uchrab turadi. Masalan, “*Miryoqub gʻururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi, injener esa burungi kular yuzini ham noʻqtalab oldi*”²⁴ (Choʻlpon, “Kecha va kunduz”) gapidagi *gʻururning kaltaklanishi* va *kular yuzini noʻqtalamoq* birikmalari odatiy holatda mavjud boʻlishi mumkin emas. Ammo badiiy asarda “*ayovsiz darajada oyoqosti boʻlish*” (gʻururning kaltaklanishi), “*umuman gapirmay qoʻyish, qovoqni uyib olish*” maʼnolarini yanada taʼsirchan ifodalash uchun asarda birikma shaklida muvaffaqiyat bilan qoʻllangan.

Anglashiladiki, tobe va hokim soʻzlarning har biri maʼnoviy, shakliy, joylashuv omillarining muvofiqligi asosida birikma hosil qiladi. Baʼzi oʻrinlarda

²²Mengliyev B.R. Oʻzbek tilining struktural sintaksisi. – Qarshi: Nasaf, 2003. – B. 27.

²³Oʻsha manba. – B. 29.

²⁴Choʻlpon Kecha va kunduz. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 59.

bu omillarning nomuvofiqligiga soʻzlovchining nutqdan koʻzlagan maqsadiga koʻra nutq vaziyati, sharoiti, soʻzlovchi va tinglovchining holati kabi pragmatik vositalarning taʼsiri sabab boʻladi.

Dissertatsiya uchinchi bobining ikkinchi boʻlimi “Oʻzbek tilida xususiy birikuvchili sodda va murakkab soʻz birikmalari” deb nomlanadi. Oʻzbek tilshunosligida sintaksisning muhim obyekti sifatida soʻz birikmasi nazariy jihatdan anʼanaviy tilshunoslikda ham (A.Gʻulomov, M.Asqarova, Gʻ.Abdurahmonov, F.Abdullayev, Sh.Rahmatullayev), struktural tilshunoslikda ham (N.Mahmudov, H.Neʼmatov, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, B.Mengliyev, M.Abuzalova, Sh.Akramov, R.Bobokalonov, S.Nazarova, L.Raupova, B.Yorov) atroflicha tadqiq qilingan. Uzoq vaqt tilshunos olimlar soʻz birikmasining til yoki nutq birligi ekanligi haqida munozara qilib keldilar. Til va nutq ziddiyati asosida yondashuv natijasida soʻz birikmasi qoliplari lisoniy, bu qoliplardan hosil boʻlgan soʻz birikmalari nutqiy hodisa sifatda baholandi. “Darhaqiqat, valentlik va soʻz birikmasi oʻzaro mohiyat va hodisa munosabatidir. Mohiyat umumiy, hodisa esa uning aniq koʻrinishlari sanaladi. Valentlik abstrakt tafakkur sathida (mohiyat), soʻz birikmasi esa jonli kuzatish sathida (hodisa) mavjuddir. Soʻzlarning maʼlum til meʼyoriga xos bogʻlanish modeli til birligi, bu modelning leksik birliklar bilan toʻldirilishi, aniq reallashuvi, hodisalarda namoyon boʻlishi nutq birligi hisoblanadi. Demak, til va nutq zidligi soʻz birikmalariga ham xosdir”²⁵.

Jonli nutqda rang-barang koʻchma maʼnolarini namoyon qilishi va ularning barchasini qamrab olish imkonsizligi tufayli biz leksemalarning xususiy birikuvchilarini ajratishda ularning oʻz maʼnosida qoʻllangan holatlarga eʼtibor qaratishni lozim deb topdik. Keltirilgan misollar orqali tor yoki keng valentlikni tahlil qilish jarayonida feʼllarning agens valentligiga toʻxtalangan. Tahlillardan itleksemasi *akillamoq* leksemasining xususiy birikuvchisi deb xulosa chiqarish mumkin. Chunki oʻzbek tilida soʻzlashuvchilarning xayoliga bu ikki leksemadan biri talaffuz qilinganda ikkinchisi kelishi tabiiy. Umumiy birikuvchilarda esa bu holatni koʻrmaymiz. Chunki ular hokim soʻzning “*boʻsh qism*”ini toʻldiruvchi cheksiz birikuvchilardan biri xolos.

Xususiy birikuvchili murakkab birikmalar, asosan, hokim qismning kengayishidan hosil boʻladi. Bunda hokim soʻzga birikib kelayotgan soʻzlarning har biri xususiy birikuvchi boʻlishi yoki ulardan baʼzilari umumiy birikuvchi boʻlishi mumkin. Masalan, *qurilayotgan besh qavatli bino* murakkab birikmasida *besh qavatli* va *qurilayotgan* birikuvchilarining har biri xususiydir. *Mahallamizdagi besh qavatli binobirikmasida esamahallamizdagi* – umumiy (chunki mahallada binodan boshqa narsalar: *muammo*, *stadion*, *bogʻ* va hokazo boʻlishi mumkin), *besh qavatli* – xususiy birikuvchi sanaladi.

Dissertatsiya uchinchi bobining uchinchi boʻlimi “Oʻzbek tili matnlarida soʻzlarning bevosita (kontakt) va bilvosita (distant) xususiy birikuvchilari” deb nomlanadi. Bir tomondan nutqda soʻzlar bir-biri bilan birikib tilning chiziqli xususiyatiga, asosan, oʻzaro munosabatga kirishadi, natijada ikki nutq birligini bir vaqtda talaffuz qilishning imkoni boʻlmaydi. Bu birliklar nutq davomida ketma-ket joylashadi. Bunday qatorni hosil qiluvchi soʻzlardan tuzilgan birikmalarni sintagmalar

²⁵ Mahmudov N., Nurmonov A. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. – B. 5.

deb nomlash mumkin. Boshqa tomondan, nutqdan tashqarida qandaydir umumiylikka ega bo'lgan leksemalar turli munosabatlar asosida xotirada o'ziga xos guruhlar hosil qiladi. So'zlar orasidagi sintagmatik va paradigmatic munosabatlar haqidagi tadqiqotlar asoschisi F.de Sossyur shunday yozgan edi: "Bu munosabatlarni assotsiativ (bu atama olimlar tomonidan keyinchalik "paradigmatik" deb nomlandi) munosabatlar deb nomlash mumkin"²⁶.

Avvalo, umumiy birikuvchilarning kontakt va distant turlari uchraydigan matnlar tahlilini amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. O'zbek matnlarida umumiy kontakt (bevosita) birikuvchilarning rang-barang turlari mavjud. Distant birikuvchilar esa hokim leksemaga to'g'ridan to'g'ri birikolmaydi, balki avval boshqa bir leksemaga va shu leksema orqali hokim maqomdagi leksemaga birikadi. Masalan:

*"Shu payt, ko'cha boshida qariligidan quloqlari osilib qolgan, echkidekkina ozg'in eshak ko'rinadi"*²⁷.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidan olingan ushbu parchada *shu payt, ko'cha boshida* so'zlari mutlaq hokim bo'lgan bo'lak – kesim (*ko'rinadi*)ga distant bog'langan (chunki *shu payt, ko'cha boshida* so'zlari bilan kesim – *ko'rinadi* orasida *qariligidan, quloqlari osilib qolgan, echkidekkina, ozg'in eshak* kabi so'zlar mavjud). *Quloqlari osilib qolgan, echkidekkina, ozg'in* kabi bo'laklar ikkinchi bosh bo'lak – egaga to'g'ridan to'g'ri tobe bo'lib kelgan va unga ikki so'z (bo'lak) – *quloqlari osilib qolgan* va *echkidekkina* distant birikkan bo'lsa, *ozg'in* so'zi kontakt tarzida bog'langan. *Qariligidan* so'zi ikkinchi darajali bo'lakka (*quloqlari osilib qolgan* aniqllovchisiga) to'g'ridan to'g'ri birikkan. Demak, *qariligidan, quloqlari osilib turgan, echkidekkina, ozg'in* so'zlari (bo'laklari) kesimga nisbatan distant birikuvchilar hisoblanadi. *Eshak* so'zi (bo'lagi) kesimga to'g'ridan to'g'ri birikkanligi sababli kontakt birikuvchi hisoblanadi. O'z navbatida *qariligidan, quloqlari osilib qolgan, echkidekkina* so'zlari eganing (*eshak*) distant birikuvchisi, *ozg'in* so'zi esa uning kontakt birikuvchisi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ma'lum bir so'z o'zi to'g'ridan to'g'ri birikkan va matnda yonma-yon joylashgan so'zga nisbatan kontakt birikuvchi hisoblansa, birikmani hosil qiluvchi a'zolar orasida boshqa so'z(lar) bo'lgan hollarda distant birikuvchi sanaladi. Shu o'rinda bo'lakning hokim so'zga to'g'ridan to'g'ri tobe bo'la olishi uning kontakt birikuvchi ekanligini anglatmasligini ta'kidlash o'rinli.

Mazkur gapdagi bosh bo'laklarning kontakt va distant birikuvchilari jadvalda quyidagicha aks etadi:

Bosh bo'lak	Kontakt birikuvchi	Distant birikuvchi
Ko'rinadi (kesim)	eshak	shu payt; ko'cha boshida.
Eshak (ega)	ozg'in	echkidekkina; qariligidan quloqlari osilib qolgan.

²⁶Соссюр де. Ф. Умумий лингвистика курси. – М.: Прогресс, 1977. – Б. 155-156.

²⁷Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2018. – Б. 167.

Xususiy birikuvchilar bilan shakllangan birikmalar til egalari nutqida tez-tez uchrashi bilan ajralib turadi. Xususiy birikuvchilar asosidagi birikuvchanlik lugʻatini shakllantirish mashina tarjimai, kompyuter lingvistikasi kabi sohalar taraqqiyotiga hissa qoʻshadi va oʻzbek tili milliy korpusi uchun lingvistik asos boʻladi.

Dissertatsiyaning “Oʻzbek tili mustaqil soʻzlarining birikuvchanlik lugʻati va undagi xususiy birikuvchilarni modellashtirish” deb nomlangan toʻrtinchi bobining birinchi boʻlimida “Oʻzbek tili soʻzlar birikuvchanligi lugʻatining zarurati va ahamiyati” ochib berilgan. Leksikografiya, amaliy tilshunoslikning boshqa sohaları singari, bugungi kunda jadal rivojlanayotgan sohalardan biridir. Bu sohada ulkan yutuqlarga erishgan V.V.Morkovkin umumiy lugʻatlarni ikki turga ajratgan edi: 1) antropotsentrik; 2) lingvotsentrik²⁸. Antropotsentrik lugʻatlarda asosiy urgʻu inson ongida tilni tasvirlash, undan nutq jarayonida toʻgʻri va samarali foydalanish qobiliyatini shakllantirishga koʻmaklashishni maqsad qilsa, lingvotsentrik lugʻatlarda eʼtibor til markazda boʻlishi, asosiy vazifa esa tildagi faktlarni yoritish hisoblanadi. Zamonaviy lugʻatlarning katta qismi antropotsentrik xususiyat yetakchilik qilmoqda.

Soʻzning birikuvchanlik xususiyatlari uning lugʻaviy maʼnosiga ham bogʻliq, albatta. Leksik-semantik birliklar anglatadigan maʼnosi bilan maʼlum bir leksik paradigmalariga kiradi va boshqa birliklar bilan birikadi. Lugʻatlarda lingvistik va uslubiy jihatdan soʻzlarni toʻgʻri tavsiflash tildagi soʻzlar yakka holda emas, balki boshqa soʻzlar bilan aloqada mavjud boʻlishiga asoslanishi lozim. Lugʻatlashtirishda bu xususiyatlarni hisobga olish leksik birliklarning turli xususiyatlarini, shu jumladan, birikish xususiyatlarini yanada izchil va tizimli aks ettirishga imkon yaratadi. Soʻz maʼnosi tahliliga bagʻishlangan tadqiqotlarda soʻzlar birikuvchanligidan foydalanish ham aynan shunga asoslanadi. Shunday qilib, soʻzni semantik tahlil qilish vositalaridan biri sifatida soʻzlar birikuvchanligining ahamiyati juda katta. Ammo hozirgi kunda bu sohada amaliy va nazariy tadqiqotlarning kamligi birikuvchanlik lugʻatlari va ularga oid tadqiqotlarning zarurligini koʻrsatadi.

Soʻzlar birikuvchanligiga doir tadqiqotlar oʻtkazish va birikuvchanlik lugʻatlarini yaratishning yana bir zarurati hozirgacha bu sohada boy manba toʻplanganligi, ularni tizimlashtirish lozimligi bilan belgilanadi. Ammo bu faoliyat (soʻzlar birikuvchanligi tadqiqi) quyidagi mummolarga duch keladi va ularni hal etish bilan amalga oshadi: 1) birikuvchanlik tushunchasining murakkabligi va geterogenligi; 2) vaqt oʻtishi bilan birikuvchanlikka qanday omillar taʼsir qilishining aniqlanmaganligi; 3) soʻzlarning leksik birikuvchanligi shakllanishi tamoyillari aniqlanmaganligi. Albatta, bu kabi muammolarni ham yaratilajak mukammal birikuvchanlik lugʻatlari va birikuvchanlikka doir olib boriladigan tadqiqotlar yechadi.

Birikuvchanlik lugʻatlariga ehtiyoj sezadigan yana bir soha – tilshunoslikka, umuman, tilga oid maʼlumotlardan foydalanadigan dastur ixtirochilaridir va ular birinchi navbatda ana shu maʼlumotlarning yetishmasligi, baʼzan umuman mavjud emasligi muammosiga duch keladilar. Maʼlumotlar deganda turli tipdagi lugʻatlar, korpus maʼlumotlari, grammatik qoʻllanmalar, umuman, yaratilajak dastur uchun

²⁸Морковкин В.В. Антропоцентрический versus лингвоцентрический подход к лексикографированию // Национальная специфика языка и ее отражение в нормативном словаре. – М., 1998. – С. 132-133.

soʻz haqidagi har qanday maʼlumot nazarda tutilmoqda. Aynan soʻz haqidagi maʼlumotlar boshqa sohalarida til, uning oʻziga xosligi haqida tasavvur hosil qilishda muhim hisoblanadi.

Birikuvchanlik lugʻatlari yana soʻz birikmalarining koʻp maʼno anglatishi, matnda ularning qay bir maʼnosi nazarda tutilganligini anglash qiyin boʻlgan vaziyatlar, gapdagi soʻzlarning qaysi soʻzga tobeligini aniqlash mumkin boʻlmagan oʻrinlarda muammoning yechimi sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, *uzun bogʻichli it* birikmasida *uzun* aniqlovchisi *bogʻichga* yoki *itga* aloqadorligini birikuvchanlik lugʻati orqali aniqlash mumkin. Yaʼni *uzun* soʻzi ikki soʻzdan qay biri bilan jonli nutqda koʻproq birikma hosil qilishi, qay biri bilan birikkanda mantiqiyroq soʻz birikmasi hosil boʻlishi kabilar haqida ham birikuvchanlik lugʻatiga asosanib xulosa qilish mumkin boʻladi.

Toʻrtinchi bobning ikkinchi boʻlimi “Oʻzbek tili mustaqil soʻzlari xususiy birikuvchilari lingvistik qoliplarining tuzilishi” deb nomlanadi. Tilshunolikda substansial yondashuv paydo boʻlganidan soʻng soʻz birikmalari soʻz birikmasi qolipining nutqiy hosilalari sifatida baholanadigan boʻldi. Bunda soʻz birikmasi qoliplari umumiylik, mohiyat, imkoniyat sabab kabi xususiyatlarga ega boʻlgan moddiylikdan xoli lisoniy birliklar hisoblansa, soʻz birikmalari ana shu qoliplardan voqelanadigan moddiylikka ega nutqiy birliklar ekanligi taʼkidlandi. Xususiy birikuvchili birikmalar qoliplari mutlaq umumiylik xususiyatiga ega boʻlmaganligi sababli nisbatan quyi bosqichda joylashadi. Birikmalar qoliplari va ularning tuzilishini sharhlashda bosh soʻz sifatida feʼl, ot, sifat, son, ravish va olmosh – mustaqil soʻz turkumiga oid soʻzlar tanlab olindi. Bunda bosh soʻz bilan oʻzbekcha matnlarda birikma holida koʻp uchraydigan, shunday imkoniyatga ega boʻlgan soʻzlar tanlab olindi. Soʻz birikmasini, aniqlash uchun uning lisoniy sintaktik qolipini (LSQ) lisoniy sathda tahlil qilishga harakat qilamiz. Boshqa lisoniy hodisalar singari soʻz birikmasining LSQ larini tiklash va uning nutqda voqelanishi bir-biridan farqlanadi. Soʻz birikmasi LSQsining voqelanishi “lison-nutq” yoʻnalishida boʻlib, bu yoʻnalish umumiylikdan oraliq koʻrinishlar orqali nutqiy hodisalarga, yaʼni xususiyliklarga qarab boradi. Bunda [W-W] umumiy lisoniy sintaktik qolip boʻladi. [$O_{at}^{q.k.}$ – $O_{tur.}^{e.q.}$] quyi lisoniy sintaktik qoliplardan biri sanaladi. [Karimning kitobi] hosilasi ana shu LSQ asosidagi nutqiy soʻz birikmalariga namuna boʻla oladi. [F^{rd} -F] – hol-hollanmish qolipidan *oʻylab gapirmoq*, *ketgach kelmoq*, *qaytguncha ulgurmoq*, *oʻqigani kelmoq* kabi minglab birikmalar hosil boʻladi. Bu birikmalar ham avvalgi qolip hosilalarida boʻlgani kabi qolip xususiyatlariga koʻra umumiylikka, qolipni toʻldiruvchi leksemalar xususiyatlariga koʻra farqlarga ega. Hammasida hol-hollanmish munosabati mavjudligini ularning umumiyliklaridan biri deb hisoblashimiz mumkin. Ravishdosh shakllarining turlichaligi, shunga asosan holning har xil turlari hosil boʻlayotganligi ham soʻz birikmalarining farqlaridandir. Masalan:

oʻylab gapirmoq – harakatning qay tarzda bajarilganligini ifodalovchi belgi – shu belgiga ega harakat;

ketgach kelmoq – maʼlum bir harakatning yakunlanish vaqti – shu vaqtda bajarilgan harakat;

qaytguncha ulgurmoq – ma’lum bir harakat bajarilguncha bo’lgan vaqt chegarasi – shu vaqt chegarasigacha bajarilgan harakat;

o’qigani kelmoq – ma’lum bir harakatni bajarishdan maqsad – shu maqsadda bajarilgan harakat.

Lisoniy sathdagi umumiy birikuvchili soʻz birikmasi LSQ si [W-W] koʻrinishida boʻladi va oraliq LSQ lar [W^{mv} – W^{mv}], [W^{k.q.} – W^{e.q.}] va hokazo shaklda nutqiy soʻz birikmalariga oʻtib boraveradi. LSQ ning voqelanishi soʻz birikmasi sanaladi. Soʻz birikmasida lugʻaviy, grammatik farqlar kuzatilishi mumkin, lekin bu farqlar LSQ da aks etmaydi. Soʻz birikmasi LSQsining voqelanishi “lison-nutq” yoʻnalishida, soʻz birikmasi LSQ sini tiklash esa “nutq-lison” yoʻnalishida kechadi.

Xususiy birikuvchili soʻz birikmalari qoliplarida [W-W] koʻrinishida boʻla olmaydi. Chunki bu qolip umumiy birikuvchilar uchun xos, shu sababli xususiy birikuvchilarni aks ettira olmaydi. Xususiy birikuvchili soʻz birikmalarning qoliplari lisoniy sathning quyiroy qismida joylashadi va unda W oʻrniga xususiy birikuvchi boʻlib kelishi mumkin boʻlgan soʻz (yoki uning turkumi) joylashadi. Xususiy birikuvchili birikmalarda esa toʻliq umumiylik namoyon boʻlishi mumkin emas. Masalan, *qagʻillamoq* soʻzi oʻzbek tilida, asosan, *qargʻa* soʻzi bilan birikma hosil qilishini ulardan biriga duch kelinganda shu tilda soʻzlashuvchilarning ongida ikkinchisiga ishora paydo boʻlishi bilan ham izohlash mumkin. Shuningdek, OʻTILda *qagʻillamoq* soʻzi quyidagicha sharhlangan:

“QAGʻILLAMOQ “Qagʻ-qagʻ” ovoz chiqarmoq; qagʻqagʻlamoq. *Qir-u soy, daraxtlar qorga botibdi, Qargʻalar qagʻillar, boʻlib minnatdor.* Shuhrat. ... *baland terakning ayri shoxida qagʻillab turgan olahakkaga angrayib qolgan edi.* Neʼmat Aminov, Suvarak”²⁹.

Anglashiladiki, *qagʻillamoq* soʻzi kam hollarda boʻlsa ham, *qargʻadan* boshqa soʻz (*olahakka*)ga birikishi mumkin. Google qidiruv tizimiga qagʻillayotgan soʻzi kiritilganda topilgan matnlarning, deyarli, hammasida *qargʻa* soʻzi bilan birikmalar ishtirok etgan. Shulardan xulosa qilishimiz mumkinki, *qagʻillayotgan* soʻzi *qargʻa* soʻziga nisbatan xususiy chap tomon birikuvchisi boʻla oladi. Bunda chap tomondagi feʼl, albatta, sifatdash shaklini qabul qilishi lozim boʻladi. Zero, sifatdash shakli esa oʻzgalovchi kategoriya sanalib, feʼlni kesimlikdan boshqa vazifa bajaruvchi turkum – sifatga xoslaydi. Chunki sifatdashga “feʼlni otga bogʻlash”³⁰ vazifasi yuklatilgan. Demak, *qagʻillayotgan qargʻa (olahakka)* birikmasining xususiy birikuvchili lingvistik qolipini quyidagicha ifodalashimiz mumkin boʻladi: [Qagʻillamoq^{MV} – O_{qush}].

Toʻrtinchi bobning uchinchi boʻlimi **“Oʻzbek tili matnlarida soʻzlarning bevosita (kontakt) va bilvosita (distant) birikuvchanligini dastlabki dasturiy modellashtirish” deb nomlanadi.** “Model – keng qamrovli tushuncha. Bu tushunchadan matematikadan boshqa fanlarda, ishlab chiqarishda, sanoatda, iqtisodiyotda foydalaniladi va bu jabhalarda oʻziga xos maʼnoga ega”³¹. Modellar modellashtirilayotgan narsa haqida aniq tasavvur berishga yordam beradi, shu

²⁹Oʻzbek tilining izohli lugʻati, besh jildlik. V jild, tuzatilgan 2-nashri. – Toshkent: OʻzME, 2020. – B. 271.

³⁰Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. va boshq. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. – B. 193.

³¹Poʻlatov A. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 275.

xususiyati bilan har qanday fan sohasini o'rganishni osonlashtiradi. Modellashtirishning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: informatsion, lingvistik, matematik, matematik-kartografik, molekulyar, mantiqiy, pedagogik, psixologik, statistik, struktur, fizik, iqtisodiy-matematik, imitatsion, evolyutsion, kognitiv va kompyuter asosida modellashtirish³². Yaratilajak til korpusi turli xil modellarining majmuasi sifatida taqdim etiladi. Korpus ochiq tizim bo'lganligi sababli morfologik, sintaktik, semantik va boshqa lingvistik modellarni kiritish imkoni mavjud. Umuman olganda, o'zbek tili matnlarida so'zlarning bevosita (kontakt) va bilvosita (distant) birikuvchanligini modellashtirish ham ana shu yirik jarayonning bir qismi sifatida baholanishi lozim.

Birikmalarning tabiatidan kelib chiqib, ularning lingvistik ta'minotini shakllantirish, va bu ta'minot vositasida ularning lingvistik modelini tuzish lozim bo'ladi. IV bobda o'zbek matnlarida uchraydigan birikmalarning modellari tuzilib, ular tahlil qilib chiqildi. Bunda kompyuter lingvistikasida modellashtirish uchun umumqabul qilingan ramzlardan foydalanildi. Birikuvchanlikni aks ettiruvchi modellardagi ayrim morfologik vositalar uchun bunday ramzlar mavjud bo'lmaganda, individul tarzda yangi ramzlar tanlandi.

O'zbek matnlarida so'zlarning bevosita va bilvosita birikuvchanligini modellashtirishda tilshunos O'.Xoliyorov tadqiqoti natijalarini bilish muhim. Tadqiqotchi o'zbek tili morfoleksikonining dastlabki bazasini shakllantirish jarayonida o'zbek tilida so'z turkumlari nisbatini quyidagicha aniqlagan: 3949 fe'l, 22599 ot, 7172 sifat, 1856 ravish, 30 son, 182 olmosh, 106 ko'makchi, 52 bog'lovchi, 45 yuklamaga oid so'z mavjud³³. Biz quyida tahlil qiladigan matnlardagi so'zlar ham yuqoridagi ro'yxatda bor, albatta. Avvalgi fasllarda bo'lgani kabi, birikuvchanlikni modellashtirishni ham fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar bilan boshlashga qaror qildik. Bunda o'zbek adiblari ijodiga mansub asarlardagi matnlardan foydalandik. Masalan:

*"Ustodning muborak ko'zoynaklarini taqib xalqimning o'tmishiga qaradim"*³⁴.

Ushbu gapdagi kesim vazifasida kelgan so'z (*qaradim*) *o'tmishiga, taqib* so'zlarini bevosita biriktirib kelgan va bu birikmalarni yuqorida keltirilgan ramzlar yordamida quyidagicha modellashtirish mumkin:

1) *o'tmishiga qaradim* – N + SF_N + V + SF_V

Bunda N – ot, SF_N – otning sintaktik shakllari, V – fe'l, SF_V – fe'lning sintaktik shakllari.

Shu o'rinda SF_Vramzi orqali zamon, mayl, shaxs-son shakllarini (-di, -adi, -moqda, -yotir, -yap, -moqchi; -(a)y, -gin, -sin, -(a)ylik, -(i)ngiz; -m, -ng, -k, -ngiz / -man, -san, -miz, -siz) ifodalash mumkinligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi.

O'tmishiga qaradim kabi birikmalar tipik modelining submodelini quyidagicha berish mumkin bo'ladi:

N + SG + PS _aff + Acc_CS_aff + V+TS aff + ShS aff

³²Шемакин Ю.И. Начало компьютерной лингвистики. – М.: МГОУ, 1992. – 81 с.

³³Xoliyorov O'. O'zbek tili ta'limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol. fan. bo'yicha fal. dok-ri. diss. avtoref. – Termiz, 2021. – B. 16.

³⁴Qahhor A., Asarlar, 5-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1989. – B. 130.

Bunda N – ot, SG – birlik, PS _aff – egalik shakli, Acc_CS_aff – jo‘nalish kelishigi, V – fe‘l, TS aff (zamon shaklini inglizcha “Tense” so‘zi asosida shu ramz orqali ifodalashga qaror qildik), ShS aff – shaxs-son shakli (shaxs-son shaklini shunday ifodalashga qaror qildik).

Ustodning, muborakkabi birikuvchining (*ko‘zoynaklarini*) birikuvchilarini alohida modellarda berishga qaror qildik:

1) *ustodning ko‘zoynaklari* – N + SF_N + N + SF_N

Bunda N + ot, SF_N – otning sintaktik shakllari, N + ot, SF_N – otning sintaktik shakllari. Bu tipik modelni submodelda quyidagicha ifodalash mumkin:

N + Gen_ CS_aff + N + PS _aff

Bunda N- ot, Gen_ CS_aff – qaratqich kelishigi, N – ot, PS _aff – egalik shakli;

2) *muborak ko‘zoynaklari* – ADJ + N + PS _aff

Bunda ADJ + sifat, N + ot, SF_N – otning sintaktik shakllari. Bu modelning submodeli quyidagicha bo‘ladi:

ADJ + N + PS _aff

Bunda ADJ – sifat, N – ot, PS _aff – egalik shakli.

Modomiki, modellashtirish tabiiy tilni qayta ishlashning asosiy quroli³⁵ ekan zamonaviy tilshunoslikda bu masala markaziy o‘rinni egallashi lozim. Shuning uchun ham sintaktik analizator uchun so‘zlarning birikuvchanlik xususiyatlarini modellashtirish juda muhim bosqich hisoblanadi. Aniqlangan morfoleksikondagi mustaqil so‘zlarning birikish imkoniyatlarini tahlil qilib, birikuvchanlik lug‘atini yaratish, birikuvchilarni modellashtirish, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish natijasida yaratilajak milliy korpus uchun tayyorlangan ta‘minot tez va oson o‘zlashtiriladi.

XULOSA

1. Xorij lingvistikasida birikmalarni tasniflash, ularni turlarga ajratish hamda bu bilan bog‘liq muammolar so‘z tadqiqi mukammalligi talabi bilan amalga oshirilgan. Chunki so‘z semantik xususiyatlarini paradigmatic, sintagmatic munosabatlar vositasidagina to‘liq namoyon qiladi. Ba‘zan nafaqat so‘z yoki birikma, balki gaplar ham matndan tashqarida muallif intensiyasidan uzoq bo‘lgan ma‘no ifodalashi mumkin.

2. Dunyo tilshunosligida *collocation* atamasi bilan yuritiluvchi birliklar til egallari nutqida yonma-yon kelishga, birikuvga kirishga xoslangan so‘zlardan tuziladi. Ular iboralarga ma‘nodosh qurilmalar sifatida baholansa ham, a‘zolarining o‘z lug‘aviy ma‘nosini saqlab qolishi bilan ulardan farqlanadi.

3. Tilshunoslikda *collocation* atamasiga mukammal ta‘rif berish, bu borada ikki tilli lug‘atlar yaratish amaliy tilshunoslikning, xususan leksikografiyaning jadal rivojiga hissa bo‘lib qo‘shiladi va elektron tarjima muammolarini bir qadar kamaytirishda xizmat qiladi.

4. So‘zlar birikuvchanligi xorij lug‘atlarida, avvalo, izohli lug‘atlarda bosh so‘zning ma‘nosini izohlovchi matnlar, illyustrativ materiallarda keltirilgan bo‘lsa,

³⁵Hamroyeva Sh. O‘zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta‘minoti. Monografiya. – Toshkent: GlobeEdit, 2020. – B. 197.

keyinchalik aynan bir soʻzning birikish va biriktira olish imkoniyatlarini koʻrsatish maqsadida qoʻllandi.

5. Birikuvchanlik lugʻatlari oʻquv lugʻatlari sirasiga kirib, uning maqsadi foydalanuvchiga maʼlum bir soʻzning kerakli va tilshunoslik nuqtai nazaridan toʻgʻri roʻyxatini koʻrsatishda amaliy yordam berishdan iboratdir.

6. Tilshunosligimizda soʻzlarning birikuvi masalasi nazariy jihatdan batafsil oʻrganilgan, lekin ularning birikish imkoniyatlari, oʻzbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari, xususiy birikuvchili birikmalar qoliplari, ularning tuzilishi, bevosita (kontakt) va bilvosita (distant) birikuvchanligi modellari ishlab chiqilmagan.

7. Bugungi tilshunoslik ehtiyojidan kelib chiqqan holda oʻquv lugʻati darajasidagi oʻzbek tilining mukammal birikuvchanlik lugʻatini yaratish uchun soʻzlarning birikuvchanlik xususiyatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday maʼlumotlar amaliy va nazariy tilshunoslikning turli yoʻnalishlari, jumladan, korpus lingvistikasi, mashina tarjimasi va avtomatik kiritish sohalarida muhim hisoblanadi.

8. Birikuvda tobe va hokim soʻzlarning har biri maʼnoviy, shakliy, joylashuv omillarining muvofiqligi asosida birikma hosil qiladi. Ayrim hollarda bu omillarning nomuvofiqligiga soʻzlovchining nutqdan koʻzlagan maqsadiga koʻra nutq vaziyati, sharoiti, soʻzlovchi va tinglovchining holati kabi pragmatik vositalarning taʼsiri sabab boʻladi.

9. Lisoniy sathdagi umumiy birikuvchilar ishtirokidagi soʻz birikmasi umumiy lisoniy sintaktik qolipi [W -W] koʻrinishida boʻladi. Xususiy birikuvchili soʻz birikmalari qoliplari [W-W] darajasida umumlasha olmaydi. Xususiy birikuvchilarning qoliplari oraliq qoliplardan iborat boʻladi. Xususiy birikuvchili birikmalarning til egalari leksikonida tayyor holda turishi ularning qoliplari tadqiqini taqozo qiladi.

10. Oʻzbek tilidagi matnlarida fikrni yanada aniqroq ifodalash maqsadida distant (bilvosita) va kontakt (bevosita) birikuvchilardan foydalaniladi. Distant birikuvchilar hokim soʻzga bevosita birikkan soʻzning maʼnosini yanada aniqlashtirish maqsadida “boʻlakning boʻlagi” sifatida qoʻllanadi. Distant va kontakt birikuvchilar oʻzaro nafaqat semantik jihatdan, balki grammatik jihatdan ham farqlanadi.

11. Kompyuter lingvistikasi, amaliy tilshunoslik, mashina tarjimasi kabi zamonaviy yoʻnalishlar taraqqiyoti uchun sifatli birikuvchanlik lugʻatlari juda zarur hisoblanadi. Bunday lugʻatlar mavjud boʻlgan taqdirda foydalanuvchilar lugʻaviy birliklarning birikuvchanlik xususiyatlari bilan tanishish, oʻzga tilni oʻzlashtirishdagi muammolarning yechimlarini oʻrganish, umuman, zamonaviy oʻquv leksikografiyasining barcha yutuqlaridan foydalanish imkoniyatiga ega boʻladilar.

12. Soʻzlarning birikuvchanlik xususiyatlarini modellashtirish sintaktik analizator uchun zarur bosqich hisoblanadi. Aniqlangan morfoleksikondagi mustaqil soʻzlarning birikish imkoniyatlarini tahlil qilib, birikuvchanlik lugʻatini yaratish, birikuvchilarni modellashtirish tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim sanaladi. Modellashtirilgan maʼlumotlar tilda boʻlayotgan oʻzgarishlar asosida boyitib borish imkoniyati yaratiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDED
SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01
AT THE KARSHI STATE UNIVERSITY**

KARSHI STATE UNIVERSITY

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH

**OWN COMBINATION WORDS OF INDEPENDENT LEXEMES
OF THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR MODELS**

10.00.01 – Uzbek Language

**DISSERTATION ABSTRACT
for the doctor of Science (DSc) on philological science**

Karshi – 2023

The theme of doctoral (DSc) thesis was registered at the Supreme Attestation Commission under the number №B2022.4.DSc/Fil2824.

The doctoral thesis was written at the Karshi State University.

The abstract of the dissertation was posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the web-site of the Scientific Council (www.qarshidu.uz) and educational portal "ZiyoNet" (www.ziyo.net).

Scientific consultant:

Mengliev Bakhtiyor Rajabovich
Doctor of Philological Sciences, professor

Official opponents:

Umurkulov Bekpolat Normurodovich
Doctor of Philological Sciences, professor

Shakhobiddinova Shahida Hoshimovna
Doctor of Philological Sciences, professor

Muhamedova Saodat Khudoyberdiyevna
Doctor of Philological Sciences, professor

Leading organization:

Samarkand State University

Defense of the dissertation will be held on "31" 03 2023 at 10⁰⁰ at the meeting of the Scientific Council number DSc. 03/30.12.2021.Fil.70.01 awarding scientific degrees at the Karshi State University (Address: 180103, Kuchabog street 17, Karshicity, Tel.: (0 375) 225-34-13; fax: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz.) Karshi State University, Building №2, Room №202.

Doctoral dissertation can be reviewed in the information-resource center of Karshi State University (registered under number 155 Address: 180103, Karshi city, Kuchabog street 17, Tel.: (0 375) 225-34-13; fax: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

The abstract of the dissertation is distributed on "18" 03 2023
(Register protocol No. 1 dated "18" 03 2023).



[Signature]
N.N.Shodmonov
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

[Signature]
G.N.Tojiev
Scientific Secretary of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

[Signature]
X.Jabbarov
Chairman of Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of DSc dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, the compositional properties of words are considered one of the most important problems that have been of interest to linguists. In the language system, this feature is manifested in the use of words in the speech process in sentences or combinations. The combination of words is regulated by the language system and norms and occurs as a result of the interaction of different levels. We can observe the relationship between the lexical and syntactic levels in the lexical and grammatical compatibility of the words in the compound. The essence of the combination of words includes not only its importance in the realization of a lexeme, but also such aspects as the peculiarities of the meaning of the word in different languages. In the process of globalization, the increasing importance of the Internet, the fact that machine and simultaneous translation have become an urgent issue, require the analysis of combinations in each language, the identification of specific combinations of lexemes.

The formation of applied linguistics as a new scientific direction in world linguistics puts issues aimed at increasing the efficiency of language use on the agenda. Fields such as computer linguistics and machine translation require a perfect language corpus, the requirement to simplify the study of linguistics makes it necessary to conduct research related to its practical effectiveness at the level of syntax. As a result of the development of such important directions as computer linguistics, in particular, automatic text analysis, creation and programming of electronic dictionary databases, improvement of search systems, machine translation, paradigmatic and syntagmatic relations between words, researches related to the properties of the combination of words is being implemented.

Interest in computer linguistics, the national corpus, and the principles of its creation has been growing in Uzbekistan in recent years. This requires the creation of a perfect database of all areas of the language. The fact that the information about the word is complete only when its characteristics in the combination are determined, creates a demand for conducting research on concepts such as cohesiveness and valence, as well as the problems of their study. "In today's era of globalization, it is natural for every nation, every independent country to secure its national interests, and in this regard, first of all, to preserve and develop its culture, ancient values, and native language"¹. Electronicization of information, the need to turn our national language into the language of the Internet requires the study of its composition, among all the properties of the word. It determines the need to create a vocabulary of combinations that will serve as a backup for the national corpus, to model the combination of words and the relevance of the chosen topic.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4997 of May 13, 2016 "On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi", dated January 28, 2022 No. PF-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026", dated January 17,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // www.lex.uz

2017 – PF-2789 dated February “On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of scientific research”, PF-5850 dated October 21, 2019 “Uzbek on measures to fundamentally increase the status and prestige of the language as the state language”, No. PF-6084 dated October 20, 2020 “Measures for further development of the Uzbek language and improvement of the language policy in our country on” decrees, dated October 4, 2019 PQ-4479 “Uzbekistan The decision of the Republic of Uzbekistan” On wide celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law “On the State Language”, the Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis dated January 24, 2020, and other normative legal documents research serves a certain level.

Correspondence of the research to the priorities of the development of science and technology of the republic. The research was carried out in accordance with the priority direction of the science and technology and innovative development of the republic I. “Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the informed society and the democratic state and the ways of their implementation”.

